


“TASDIQLAYMAN”
“Temiryo‘linfratuzilma” AJ
“Termiz MTU” filiali boshlig‘i



G‘.O.Mamadaliyev
“ 23 ” iyun 2026 y.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ “Temiryo‘linfratuzilma” AJ
“Termiz MTU” filialida o‘tkazilgan yig‘ilish
BAYONNOMASI
18/6 - sonli

« 23 » iyun 2026 y.

Termiz sh.

| | | |
|---------------------------|--|------------------|
| Raislik qiluvchi: | “Termiz MTU” filiali boshlig‘i | G‘.O.Mamadaliyev |
| Qatnashdilar: | Surxondaryo viloyati DXX xodimi | T.X.Qulboyev |
| | Surxondaryo viloyati DXX xodimi | L.R.Tulanov |
| | “Termiz MTU” filiali boshlig‘ining I-o‘rinbosari | Z.S.Jumaniyazov |
| | Termiz MTU filiali boshlig‘i o‘rinbosari | Sh.A.Kodirov |
| | Xarakat xavfsizligi va TX nazorati departamenti | |
| | Termiz MTU bo‘yicha bosh noziri | F.X.Toshev |
| | “Termiz MTU” filiali bosh yuristkonsulti | N.Ch.G‘aniyev |
| Taklif etilganlar: | Surxondaryo viloyatida joylashgan barcha temir yo‘l korxonasi, filial va stansiya boshliqlari, uzel bo‘lim boshliqlari | Jami 67 nafar |

KUN TARTIBIDA:

Jaxonda yuz berayotgan notinch vaziyatlar, ish vaqtida hodimlar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar hamda korrupsion holatlar yuzasidan yig‘ilish muhokamasi

So‘zga chiqdi: Surxondaryo viloyati DXX xodimi T.X.Qulboyev, L.R.Tulanov
Termiz MTU filiali boshlig‘i G‘.O.Mamadaliyev,
Tushuntirish berdi: Taklif qilinganlar

YIG‘ILISHDA ANIQLANDI:

Yig‘ilishni “Termiz MTU” filiali boshlig‘i G‘.O.Mamadaliyev ochib, kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig‘ilish qatnashchilarini tanishtirish uchun so‘zni, DXX xodimi T.X.Qulboyevga berdi.

T.X.Qulboev, DXX xodimi L.R.Tulanovni tanishtirib, kelgusida temir yo‘l raxbar va mas‘ul xodimlari bilan birga ishlashi, temir yo‘l hamda Davlat ravnaqi uchun xamkorlikda ishlarni tashkil etishni bildirdi.

T.X.Qulboev o‘z so‘zini davom ettirib, temir yo‘l tizimida olib borilayotgan transformatsiya jarayonlari va korrupsiyaga qarshi kurash mavzusida quyidagilarni aytib o‘tdi. Bugungi kunda mamlakatimizda temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida keng ko‘lamli transformatsiya jarayonlari amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi temir yo‘l transporti samaradorligini oshirish, yo‘lovchilar va yuk tashuvchilar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashdan iborat.

Korrupsiyaga qarshi kurash faqat rahbariyat yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas, balki har bir xodimning fuqarolik burchi ekanligi takidlab o‘tildi. Shu bilan birga, tizimda ayrim salbiy holatlar, jumladan poraxo‘rlik, mansab vakolatini suiste‘mol qilish va fuqarolarni noqonuniy ravishda ishga joylashtirish bilan bog‘liq korrupsion holatlar uchrab turishi achinarli va uyatli holat ekanligini, korrupsion xolatlarga aralashib qolmaslik hamda ushbu holatlarni takrorlanmaslik maqsadida sodir etilgan ayrim holatlar yuzasidan quyidagilarni ma‘lum qildi, hususan Qumqo‘rg‘on stansiyasi poezd

qabul qiluvchisi Sh.Norboev tanishlari orqali ishga qabul qilishda amaliy yordam berishni vada qilib, 1500 AQSh dollari va Termiz lokomotiv deposi navbatchisi M.Nosirov fuqaro N.Xudoyberdievdan 700 AQSh dollar pullarni olganliklari hamda ushlanganliklari misol tariqasida keltirib o'tildi.

Termiz MTU va viloyatdagi boshqa temir yo'l korxonalarida ishga joylashtirish bilan bog'liq korrupsion holatlarning olidini olish va fuqarolarning aldanib qolmasligi yuzasidan, Termiz MTU filiali boshlig'i birinchi o'rinbosari Z.S.Jumaniyazov va MTU xodimlar va ijtimoiy masalar bo'limi boshlig'i O.X.To'rayevlarga tashkilotlarda mas'ul xodimlar bilan birgalikda, yig'ilish o'tkazib tushuntirish ishlari olib borish hamda o'tkazilgan yig'ilishlar bo'yicha axborot berish topshirig'i berildi.

Termiz lokomotiv deposidagi rangli va qora metall parchalarini topshirish bo'yicha bo'lgan hodisa yuzasida shuningdek Termiz lokomotiv depo ishchi xodimlarining ish joylaridagi muhit yaxshi emasligi ishchi xodimlarning noroziliklari, qo'shni Afg'onoston davlatiga "Sogdiana Trans" MChJ ishga o'tayotgan mashinistlar navbat bilan o'tmayotganligi yuzasidan ham noroziliklar borligini aytib, filial boshlig'i S.Ubaydullayevga ushbu norozichilik bo'yicha keskin choralar ko'rish, oldini olish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Termiz signallashtirish va aloqa masofasi filialida faoliyat olib borayotgan xodim o'z ish joyida mayning faoliyati bilan noqonuniy shug'ullanganligi, korxonada boshlig'i holat bo'yicha nazorat qilmaganligi, undan tashqari korxonada foyilayotgan ayollar o'z ish joylarida ishga bo'g'liq bo'lmagan gap so'zlar ya'ni bo'qton gaplar chiqarayotganligi, raxbariyatga bo'lgan bo'ysunmaslik holatlari bo'yicha choralar ko'rish hamda oqibatga kelib chiqadigan salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha filiali boshlig'i U.Nematovga topshiriqlar berildi.

Termiz elektr ta'minoti filiali boshlig'i A.Irgashevga temir yo'l atrofida yashayotgan xo'jaliklar shuningdek tadbirkorlik subyektlarining elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanib olish holatlarini oldini olish yuzasidan nazoratni kuchaytirish vazifasi yulatiladi va bu haqda axborot berib borish vazifasi topshirildi.

Termiz MTU boshlig'i o'rinbosari Sh.A.Kodirov, Termiz yuk hujjatlarini qayta ishlash texnologik markaz boshlig'i I.R.Xujamuratov, Termiz MTU yuk va tijorat ishlari bo'limi boshlig'i v.v.b. Y.M.Yusufovlarga o'z yo'nalishlari bo'yicha bugungi kungacha yo'l qo'yilgan poraxo'rlik, mansab vakolatini suiste'mol qilish kabi holatlar bo'yicha hulosa chiqarish va shu kabi holatlarga yo'l qo'yilishini oldini olish vazifalarini nazoratga olish bo'yicha topshiriqlar berildi.

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ ning Karshi-Termiz bo'yicha Shahar atrofida yo'lovchi tashish filiali boshlig'i F.Djumaevga, barcha yo'lovchi poyezdlarda chiptasiz yo'lovchilar yurishini oldini olish maqsadida, vagon kuzatuvchilarining ish faoliyatini to'liq kuzatish maqsadida body kameralarning uzluksiz ishlashini taminlash, vagon kuzatuvchilarning ishini nazorat qilish, yo'lovchilarga sifatli xizmat qilish bo'yicha ishlarni doimiy nazorat qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Bundan tashqari ishchilarning tartib intizomga rioya qilishlari, xodimlarning xaftaning juma kunlari ish vaqtida ish joylarini tashlab diniy amallarni bajarish uchun ketib qolmasligi, ayniqsa harakat havfsizligi bilan bog'liq ishlarga bevosita ta'sir qilishi oqibatlari bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish bo'yicha korxonada raxbarlariga topshiriqlar berildi.

Temir yo'l izlari atrofida ishlovchi xodimlarning ish vaqtida spirtli ichimlik istemol qilib, ishini davom ettirayotganligi, yuqori kuchlanishdagi elektr havfsizligi va texnika havfsizligi qoidalari buzilayotganligi holatlari aniqlanayotganligini dalillar bilan ta'kidlab o'tildi. Undan tashqari harakatdagi peozdlarning odam o'rib ketish holatlari bo'yicha misollar keltirib, oldini olish bo'yicha axoli govjum joylarda to'siqlar qo'yish masalalari bo'yicha taklif kiritilishini hamda stansiya raxbarlari tomonidan ish hajlarini oshirish mijozlarga qulay sharoit yaratish stansiyalar faoliyatini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritib va bu haqda umumiy ma'lumotlar berish bo'yicha uzal boshlig'i o'rinbosari Sh.A.Kodirovga topshiriqlar berildi.

Temir yo'l tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari mamlakatimiz transport sohasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyati esa, avvalo, halol, mas'uliyatli va fidoyi xodimlarga bog'liq. Shuning uchun har birimiz korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi murossasiz munosabatda bo'lishimiz, qonun ustuvorligini ta'minlashga o'z hissamizni qo'shishimiz lozimligi tushuntirildi.

So'zni MTU boshlig'i G'.O.Mamadaliyev davom ettirib, yuqorida ta'kidlab o'tilgan kamchiliklardan barcha raxbar va mas'ul xodimlar o'zlariga xulosa chiqarish lozimligi, xato-kamchiliklarning takrorlanmasligi uchun har bir raxbar mas'ulligini ta'kidlab, kelgusida ushbu kamchiliklar

takrorlanmasligi bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi hamda qattiq nazoratga olinishini ta'kidlab o'tdi.


Yig'ilish so'ngida kun tartibidagi masala yuzasidan so'zga chiqqan boshqa yig'ilish qatnashchilari ham o'z fikr mulohazalarini bildirdilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yig'ilish,

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi harakat havfsizligi, mehnat intizomi, korrupsiya illatlariga qarshi kurashish va boshqa masalalar yuzasidan qilingan ma'ruzalari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Barcha ish beruvchi raxbarlarga, o'z xodimlari ustidan nazoratni kuchaytirish, ish vaqtida xodimlarning ish joyida bo'lishini, belgilangan lavozim talabi bo'yicha ishlashini nazorat qilishni kuchaytirish choralari ko'rilsin.
3. Ish beruvchi raxbarlar kelgusida qo'pol ravishda ichki mehnat tartib qoidalari hamda korrupsion holatlarga yo'l qo'ygan xodimlarga qat'iy choralar ko'rish topshiriqlari yuklatilsin.
4. Ushbu yig'ilish qarori ijrosini nazorat qilishni Termiz MTU filiali boshlig'i birinchi o'rinbosari Z.S.Jumaniyazov zimmasiga yuklatilsin.

**Kelishildi: MTU boshlig'i birinchi
o'rinbosari:**



Z.S.Jumaniyazov

Bayonnomani olib boruvchi:



O.To'rayev



